

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

FarDU
ILMIY
XABARLAR-

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

2023
MAXSUS SON

НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

Э.Б.Ягьяева	
Дифференцированный метода обучения при изучении иностранного языка и организации самостоятельной работы студентов.....	114
М.К.Мавлюда	
O'qituvchi kompetensiyasining o'ziga xos xususiyatlari.....	117
G.A.Asomiddinova	
Qahramon xarakterini yaratishda badiiy nutq imkoniyatlari va muallif mahorati.....	120
N.K.Abbasova, Z.Q.Xakimova	
Speech act as an important function of communication.....	125
Sh.R.Muydinov	
Linguoculturological description of zoonym composite partial similarities.....	128
M.Madaminova	
Exploring the persuasive power of publicistic style: utilizing proverbs and sayings in english lesson.....	130
Sh.M.Yusufjonova	
Frazeologizmlar taqiqi.....	134
Ш.И.Аскарова	
К проблеме языковой интерференции и билингвизма при изучении третичного языка.....	137
Ш.И.Аскарова	
К вопросу трансфера и интерференции при изучении немецкого после английского языка.....	141
Sh.Sh.Dadabayeva	
Tarjimada so'zning kontekstdagi ma'nosini aniqlash usullari.....	148
Sh.Sh.Dadabayeva	
Tarjima jarayonida vaziyatning o'rganilishi.....	152
Sh.Y.Usmonova	
Cognitive analysis of landscape terms in uzbek and english languages.....	159
Sh.Y.Usmonova	
O'zbek va ingliz tillarining terminologik tizimida landshaft terminlarining o'rni.....	162
Z.Sh.Pazilova	
Nemis xalqida dafn marosimining o'tkazilishi.....	167
Z.Sh.Pazilova	
O'zbek va nemis xalqlarida to'y bilan bog'liq shaxs nomlari.....	170
R.U.Axrорова	
Lingvomadaniyatshunoslik: lingvokulturema va logoeistema.....	173
O.O.Bobokalonov, R.U.Akhrорова	
Shifonemas in phraseological units related to the period of youth.....	178
R.U.Axrорова	
Fransuz ertaklarida yoshga oid representlarning leksik-semantik va milliy-madaniy xususiyatlari.....	182
Z.M.Abdullaev	
Nemis tili ismlari motivlari va ism tanlashga ta'sir etuvchi omillar.....	185
Z.M.Abdullaev	
Nemis tilida atoqli otlar va ularning tasnif etilishi.....	188
I.R.O'rinboyev	
Ba'zi na'matak (<i>Rosa</i>) turlarining Farg'ona shahrida tarqalishi va dorivorlik xususiyatlari.....	190
I.D.Yakubov	
Separator-tozalagich qurilmasining parametrlari.....	193
M.Nazarov, A.T.Maxsudaxon	
Javdarni jadal texnologiyada parvarishlash.....	201
Ё.Г.Абдуганиев	
Получение и свойства производных перфторакриловой и перфторметакриловой кислоты.....	205
D.M.Ahmedova	
Ekologik munosabatlarning konstitutsiyaviy-huquqiy asoslari.....	215

TARJIMA JARAYONIDA VAZIYATNING O'RGANILISHI
STUDY OF THE SITUATION IN THE PROCESS OF TRANSLATION

ИЗУЧЕНИЕ СИТУАЦИИ В ПРОЦЕССЕ ПЕРЕВОДА

Dadabayeva Shirinxon Shuxratovna¹

¹Farg'ona davlat universiteti, PhD, katta o'qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqola tarjima jarayonida vaziyatning ahamiyatliligi, uning asliyat tilidan tarjima tiliga o'tishi haqida bo'lib, unda olimlarning tarjima modeli bo'lgan situativ-denotativ usuli haqidagi fikrlari keltiriladi. Tadqiqotda ushbu usul haqida to'liq ma'lumot va uning tahlili beriladi. Undan tashqari, maqolada konstruksiya va uning gapdan farqi, uning o'ziga xos xususiyatlari ko'rsatib o'tiladi. Xususan, konstruksiya nutq birligi bo'lib, u vaziyatni tildagi ifodasidir. Gap esa ega va kesim munosabatini ifodalovchi til birligidir. Konstruksiya gapga nisbatan keng tushuncha, aynan, tarjimada vaziyatni to'g'ri tushinishi va uni boshqa tilga tarjima qilishda tarjimonning konstruksiya haqida bilimiga ega bo'lishi muhim.

Abstract

This article is about the significance of the situation in the process of translation, its transition from the original language to the translated language, and the opinions of scientists about the situational-denotative method, which is a model of translation, are given. The study provides full information about this method and its analysis. In addition, the article shows the construction and its difference from the sentence, its specific features. In particular, a construction is a speech unit, which is a linguistic expression of a situation. A sentence is a language unit that expresses the relation of subject and verb. Construction is a broad concept in relation to the sentence, namely, it is important for the translator to understand the situation correctly in the translation and to have knowledge about the construction when translating it into another language.

Аннотация

В данной статье речь идет о значении ситуации в процессе перевода, ее переходе с языка оригинала на язык перевода, а также приводятся мнения ученых о ситуационно-денотативном методе, который является моделью перевода. В исследовании представлена полная информация об этом методе и его анализе. Кроме того, в статье показаны конструкция и ее отличие от предложения, ее специфические особенности. В частности, конструкция – это речевая единица, являющаяся языковым выражением ситуации. Предложение – это языковая единица, выражающая отношение обладателя и причастия. Конструкция – это широкое понятие по отношению к предложению, а именно, переводчику важно правильно понимать ситуацию в переводе и обладать знаниями о конструкции при переводе ее на другой язык.

Kalit so'zlar: tarjima, model, situativ-denotativ model, transformatsion model, semantik model, vaziyat, konstruksiya, tarjimon.

Key words: translation, model, situational-denotative model, transformational model, semantic model, situation, construction, translator.

Ключевые слова: перевод, модель, ситуационно-денотативная модель, трансформационная модель, семантическая модель, ситуация, конструкция, переводчик.

KIRISH

Tarjima jarayonining lingvistik tahlillaridan biri, aynan, asliyat tildagi ma'noni tarjima tilda ham bera olishdir. Bu asliyat tilni tahlil qilib, tarjima tilda uning natijasini berishni talab etuvchi jarayondir. Tarjimashunoslikda bu kabi vazifalar turli tarjima modellari orqali amalga oshiriladi.

Tarjima jarayonining har bir bosqichida foydalaniladigan konstruksiya tarjima modeli bo'lib, u tahminiydir. Uning tahminiy ekanligiga sabab, u tarjimonning ongida yuz beradi va bu holatni kuzatib bo'lmaydi. Ammo V.Komissarov fikriga ko'ra asliyat tilidagi matnni tarjima matnga solishtirish orqali bu modellarni tekshirish mumkin.[10;424] Bunda ushbu ma'no ikki til orqali tekshiriladi va tenglashtiriladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

V.N.Komissarov[10], A.D.Shvaytzer[14;280], Federov[13;52-53], A.Neybert[8], M.Hallidey[1], T.Seiveri[3], E.Nida[19], K.Rays[11] kabi olimlar tarjima nazariyasida turli lisoniy usul va yondashuvlardan foydalanadi. Xususan, V.N.Komissarov va V.Gak tarjima jarayonida quyidagi uchta asosiy modellardan foydalanilishni tavsiya etishadi[8]:

- 1.Situativ-denotativ model.
- 2.Transformatsion model.
- 3.Semantik model.

Ushbu modellardan eng ko'p foydalaniladigan turi situativ-denotativ model bo'lib, unda vaziyat, konstruksiya, denotat va referent kabi tushunchalarni bilish muhim.

Situatsiya (vaziyat, holat) – tasvirlanadigan aniq yoki mavhum voqelikdir va uning tarjima madagi eng asosiy vazifasi aslyiat tildagi matnni tarjima tildagi ekvivalentligini belgilab berish[11;50]. Bu esa tarjimada muvofiqlikni to'liq saqlashga yordam beradi.

Vaziyat (situatsiya) – tasvirlanayotgan obyektlar va ular o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik. V.N.Komissarov tomonidan berilgan ushbu ta'rif keyinchalik tarjima situatsiya nazariyasi deb atalgan yo'nalishni vujudga kelishiga sabab bo'ldi. Ko'rinib turibiki, ushbu nazariyaning eng asosiy vazifalardan biri aslyiat tildagi manbani tarjima tilda saqlab qolish.

V. Gak fikriga ko'ra vaziyat – inson ongida nutqni shakllantiruvchi lisoniy birliklar majmui. U har xil shaklda bo'lib, tilning turli funksiyalarini ifodalay oladi[7;349-372].

“Situatsiya” konseptining quyidagi ko'rinishlari mavjud:

1. Denotatlarning ma'lum bir to'plami va ular orasidagi munosabatlar.
2. Nutq akti amalga oshiradigan sharhlar.
3. Nutqda belgilarning ma'nosini aniqlashtirish uchun gapda qo'shimcha ma'lumotlar berish.
4. Kommunikatsiya ishtirokchilarining ekstralingvistik bilimlari.

Ushbu vaziyat tilda o'z ifodasiga ega bo'ladi. Ya'ni borliqning inson ongidagi xossasi bo'lgan hodisa tilda turli nutq birliklari orqali voqelanadi. Xususan, vaziyatni to'liq ifodalovchi nutq birliklaridan biri – konstruksiyadir.

Zamonaviy tilshunoslikda gap o'rnida keluvchi “konstruksiya” so'zining ko'p ishlatilishi tilning yangi aspektlarini o'rganish bilan bog'liq. Xususan, situatsion lingvistik, psixolingvistik kabi sohalarshular jumlasidandir[5;19]. Konstruksiya matematik logikada ham foydalaniladi. Ammo u o'z ma'nosida ya'ni nutq birligi sifatida qo'llanilmaydi. Tilshunoslikda konstruksiya gapdan farqlanadi. Gap berilayotgan xabarni ichki strukturasini, ya'ni ega va kesim o'rtasidagi munosabatni, konstruksiya esa xabarning haqiqatga (haqiqiy ma'nosi) bog'liqligini ko'rsatadi.

Konstruksiya juda keng tushuncha bo'lib, I. Torsuyeva fikriga ko'ra u ma'noni ifodalash va shakllantirishning muhim kommunikatsion shaklidir[5;19].

Ba'zi lug'at, qarash va usullardan kelib chiqib, konstruksiya muloqotda nutq birligi sifatida, gapdan miqyosi, strukturasini, ma'nosi va vazifasiga ko'ra farqlanadi. Ya'ni konstruksiya gapga nisbatan ancha keng tushunchadir.

Funksional yondashuvga ko'ra konstruksiya nutq birligi, u gapning ekvivalentligidir, ammo u vaziyat (situatsiya)ga bog'liq. Shu sababdan ham, uning semantic tahlili esa kontekst, vaziyat so'zlochinining bilimiga bog'liq.

Tilshunoslikda konstruksiyaning quyidagi xususiyatlari mavjud:

1. Nutq ishtirokchilariga yo'naltirilganligi.
2. Vaziyatlilik.
3. tanlash xususiyatiga ega ekanligi.(nutqda konstruksiyani ko'paytirish yoki kamaytirish holatlari uchrashi mumkin.)
4. Turli xillilik.(so'zlovchi konstruksiyani turli shaklda bera olishi)
5. Vaqtinchalik ekanligi[5] shular jumlasidandir.

Konstruksiyaning statik va dinamik turlari farqlandi[5;21]:

Statik – tildan foydalanishning natijasi, matnni shakllantiruvchi jumladir.

Dinamik – tildan individual foydalanish faoliyati.

Konstruksiyani gapdan ajratish haqida tilshunoslikda aniq qonun-qoida mavjud emas. Ba'zi tilshunoslar konstruksiya miqyosini keng deb, tarjimonlar mashina tarjimasiga oid ishlardagi to'xtash oralig'i sifatida ko'rsatadi. Praga maktabi jumlaning funksional birlik, gapni shakliy birlik sifatida ko'rsatadi[5;22]. V.Skalichka konstruksiyani haqiqat segmentiga bog'liq bo'lgan semiotik til birligi sifatida e'tirof etadi[6;48]. Mateziusa ta'limotini rivojlantirgan Trnka, Dokulil, Danesh gapni ma'lum bir vaziyat bilan bog'liq bo'lgan eng oddiy lingvistikshakl sifatida berishadi, Aynan ular terminologik chalkashliklarga yo'l qo'ymaslik uchun “konstruksiya” so'zini taklif etishadi[5;25].

S.Kartsevskiy fikri konstruksiya o'ziga xos grammatik tuzilishga ega bo'lgan gapdan farqlanuvchi frazaga mos kelishi ma'lum. V.Gak esa konstruksiya hajmi jihatdan gapga teng bo'lgan funksional birlik, ammo uning gapdan farqi gap sintaktiktuzilishni, konstruksiya vaziyat bilan bog'liqdir[7;346-372]

P.I.Susov fikriga ko'ra inson ongga ega o'ziga xos mavjudot. Ongning esa asosiy vazifasi voqelikni aks ettirish ya'ni biron-bir obyektning bilish jarayoni orqali bosh miyadagi xossasini

yaratish[3;73]. Voqelik dastlab inson ongida aks etadi, keyin til orqali o'z ifodasiga ega bo'ladi. Ya'ni *voqelik, ong, til* bir-biriga chambarchas bog'liq tushunchalardir.

Obyektiv borliq o'zaro munosabatda bo'lgan predmet, hodisa, harakatlar birligidan tashkil topgan. Uning elementlari uning denotati hisoblanadi. Gapdagi elementlari majmui – vaziyat bo'lib, u turli elemntlardan tashkil topgan sistemadir[2;334].

Z.Xudorberganova fikriga ko'ra Ma'lum bir real vaziyat tildagi ifodasi denotat, ular o'rtasidagi munosabat esa vaziyatdir. Vaziyat umumiy, ammo uning xususiy ifodasi uning tildagi ifodasidir[4;116]. Shu sababdan ham tarjimada ma'lum bir tilda ushbu vaziyat uchramasa ham uni lisonda ifodalsh imkoni mavjud.

NATIJA VA MUHOKAMA

Tarjimon tarjimada bir tildan ikkinchi tilga til birliklari ifodalayotgan denotatlar va ularning majmuisi bo'lgan vaziyatni yaxshi tushunishi kerak, ushbu vaziyatning manzarisin tasavvur eta olishi darkor. Ushbu holat V.Yu.Rozensveyg tomonidan sharhlash deb nomlanadi va quyidagi jarayon tushuniladi[11;57]

Jo'natuvchi Tarjimon → Adresat. →

Bunda jo'natuvchi xabarni (A_1) tarjimonga yuboradi. Tarjimon ushbu xabarni qabul qiladi va u ifodalayotgan vaziyatni yaxshi tushunib oladi. Keyin asliyatdagi ushbu vaziyatni boshqa til – belgilar orqali B_2 shaklida adresatga yuboradi. I. Revzin fikriga ko'ra bunda eng asosiy vazifa xabar emas, balki u ifodalayotgan vaziyatdir. Bundan kelib chiqadiki, Tarjimonning eng asosiy vazifasiasliyatdagi vaziyatni tarjima tilde saqlab qolishdir[11;58].

Agar tarjima tilda asliyat tildagi denotat bo'lmasa. Quyidagi usullardan foydalaniladi[4;117]:

1. Tarjomin tarjima tilde so'z yaratadi. Masalan, *ayfon, gegabayt*.
2. Tarjimon ushbu vaziyatni tarjima tilda tavsiflashi mumkin. Masalan, *sumalak –porridge mixing wheat and water*.

Shu sababdan, V.N.Komissarov fikricha situation-transformatsion model tarjima tilda asliyat tildagi vaziyat bo'lmasa ushbu model cheklangan bo'ladi[9;34]. Ushbu fikrga qarshi bo'lgan Z. Xudayberganovaning fikricha asliyat tildagi vaziyat tarjima tildagi vaziyatga o'tishi mumkin[4;117]. Bizningcha ham hozirda tarjimashunoslik olimlar tomindan ko'plab tadqiqot ishlari olib borilmoqda va shu kabi muammolivaziyatlar o'z yechimini topmoqda.

XULOSA

Borliqning inson ongidagi voqeligi – vaziyat bo'lib, u o'zaro denotatlardan tashkil topgan. Ushbu denotatlarning o'zaro munosabatini o'rganish va tushunish tarjimon uchun muhimdir. Tarjimonning eng asosiy vazifasi asliyat tilda tasvirlanayotgan (voqea) vaziyatni ikkinchi tilda tarjima qila olishi uchun, dastlab, uni asliyat tilida yaxshi tushunishi hamda uni asliyat tildagi sifatini tarjima tilida saqlab qolishidir. Bunda tarjimon vaziyatni, uning nutqdagi ifodasi konstruksiyani, vaziyatning tarkibiy elementi denotatni va denotatning referentdan farqini bilishi ahamiyatlidir.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Halliday, K. Categories of the Theory of Grammar. - Word, vol. 17, №3, 1961.
2. Nurmonov A. Tanlangan asarlar. 1-jild. – Tashkent, 2012. – B. 334.
3. P.I.Сусов. Семантическая структура предложения. – Тулаб 1973. – С.73.
4. Z. Xudoyberganova. Tarjimashunoslikning tadqiqot metadalogiyasi. O'quv qo'llanma. – B.116
5. В.Кляничина. Ситуативные аспекты перевода. Диссер. – М., - С. 19.
6. Вахск И. Лингвистический словарь Пражской школы. - М., 1964. — С. 48.
7. Гак В.Г. Высказывание и ситуация//Проблемы структурной лингвистики 1972.-М.: Наука, 1973. - С.349-372.
8. Комиссаров В.Н. Проблемы лингвистического анализа перевода: Дис. ...док. филол. наук. -М.: МГЛУ, 1975.
9. Комиссаров В.Н. Слово о переводе. – М.: Международные отношения, 1973. – С. 32-36.
10. Комиссаров В.Н. Современное переводоведение. - М.: ЭТС. 2002. — 424 с
11. Ревзин И.И., Розенцвейг В.Ю. Основы общего и машинного перевода. М.: Высшая школа, 1964. – С.50.
12. Торсуева И.Г. Теория высказывания и интонация//Вопросы языкознания. – 1976. –№2. - С. 54.
13. Филлмор Ч. Фреймы и семантика понимания//Новое в зарубежной лингвистике: Когнит. аспект. - М.: Прогресс, 1988. — Вып. 23. — С.5292
14. Швейцер А.Д. Перевод и лингвистика. - М.: Воениздат, 1973. — 280 с.